

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA DAVLAT VA HUQUQ
ASOSLARI FANI BO‘YICHA NOMZODLARINI TANLOV ASOSIDA
ISHGA QABUL QILISH SINOVI UCHUN
FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANI BO‘YICHA NOMZODLARINI TANLOV ASOSIDA ISHGA QABUL QILISH SINOVI UCHUN TEST TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya Davlat va huquq asoslari fani bo‘yicha nomzodlarni ishga qabul qilish sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonini va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholashning asosiy maqsadi Davlat va huquq asoslari fani mutaxassislarining fan bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalar faoliyatini tashkil etish va kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholashdan iborat.

Test topshiriqlari kasbiy faoliyatda zarur bo‘ladigan bilimlarni tanish va notanish vaziyatlarda qo‘llash, muammoli holatni tahlil qilish hamda maqbul yechimni tanlashga yo‘naltiriladi.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 15-iyundagi 203-son “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlarini tanlov asosida ishga qabul qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

III. Baholash qamrovi

Davlat va huquq asoslari fani bo‘yicha 40 ta test topshirig‘i taqdim etiladi va ularni bajarish uchun 60 daqiqa vaqt beriladi. Test topshiriqlarida yagona to‘g‘ri javobni talab qiladigan (Y1), moslashtirishni talab qiladigan (Y2) hamda ketma-ketlikni talab qiladigan (Y3) yopiq turdagi topshiriqlardan foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim hamda ko‘nikmalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Mutaxassislik fani bo‘yicha tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalar bo‘yicha taqsimoti

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. Davlat va huquq (1-13-savollar)		

Shaxs, jamiyat, davlat huquq	va –shaxs, jamiyat, davlat va huquq munosabatlari(tushunchalarini)ni aniqlay olish; –davlat (shakllari, funksiyalar) va huquq bilan bog‘liq ma’lumotlarni to‘g‘ri ajrata olish; – axloq va huquq, huquq normasi, manbalari va tarmoqlarini bir-biridan farqlay olish; – huquqiy munosabatlarni tarkibiy qismlarini aniqlay olish; – huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik turlarini aniqlash; –voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlarini tushunish; –voyaga yetmaganlarning javobgarlikka tortish asoslarini aniqlay olish; –berilgan vaziyatlarda qaysi huquqiy norma qo‘llanishini to‘g‘ri tanlay olish; – faktlarni aniqlash, atama va qoidalarni amalda qo‘llash, taqqoslash, huquqiy munosabatlarni tahlil qila olish.	13
2. Konstitutsiyaviy huquq asoslari (14-20-savollar)		
Konstitutsiya va huquqiy davlat	–Konstitutsiya va huquqiy davlatning belgilarini farqlay olish; –O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinish jarayonlarini aniqlay olish; –O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bo‘limlari, boblari va ularga tegishli qoidalarni aniqlash, ushbu qoidalarni vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llash, tahlil qila olish; –O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini shuningdek, fuqarolik jamiyati, davlat hokimiyati tizimini aniqlash, taqqoslash, tahlil qilish; –turli xil vaziyatlarda Konstitutsiya va huquq normalaridan to‘g‘ri foydalanish, tahlil qilish, yechimini tanlash.	7
3. Xalqaro huquq asoslari (21–23-savollar)		

O‘zbekiston va xalqaro hamjamiyat	–xalqaro huquq normalari va Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatini aniqlay olish; –O‘zbekistonda mahalliy aholi va chet el fuqarolarining huquqiy holatini aniqlay olish; –O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va chet el fuqarolarining huquqlari va burchlarini farqlay olish; –vaziyatlarga mos huquq normalarini to‘g‘ri tanlash, harakatga keltirish, O‘zbekiston va xalqaro hamjamiyat faoliyatini aniqlash va tahlil qilish.	3
4. Ma’muriy huquq asoslari (24–25-savollar)		
Ma’muriy huquq	–ma’muriy huquqiy munosabatlarni aniqlay olish; –ma’muriy huquqbuzarlik va ma’muriy javobgarlikni aniqlay olish; –ma’muriy-huquqiy nizolarni aniqlash va ularni ko‘rib chiqish tartibini topish; –davlat xizmatlarining turlari va foydalanish asoslarini aniqlay olish; –ma’muriy jazo va uning turlarini topish; –huquqbuzarliklarning oldini olishni aniqlay olish; –kundalik hayotda yuzaga keladigan vaziyatlarga mos qonun normalarini to‘g‘ri tanlash, harakatga keltirish, tahlil qilish.	2
5. Fuqarolik huquqi asoslari (26–28-savollar)		
Fuqarolik - huquqiy munosabatlar	–fuqarolik huquqiy munosabatlarning mohiyati va xususiyatlarini aniqlay olish; –fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlarni aniqlash; –vaziyatlar asosida fuqarolik qonunchiligi normasini to‘g‘ri tanlash, harakatga keltirish; –fuqarolik ishini sudda ko‘rish bosqichlarini aniqlay olish; –atamalarni aniqlash, qoidalarini amalda qo‘llash, taqqoslash, sabab–oqibatini topish va dalillarga asoslangan xulosalarni aniqlay olish.	3
6.Mehnat huquqi asoslari (29–31-savollar)		

Mehnat huquqi	–mehnat huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlarni aniqlash va ularning o‘ziga xos jihatlarini farqlay olish; –aholini ishga joylashtirish, mehnat shartnomasini tuzish tartibini bilish; –ish vaqti, dam olish vaqti va mehnatga haq to‘lash tartibini aniqlay olish; –xodim va ish beruvchining huquq hamda majburiyatlarini farqlay olish; –intizomiy, moddiy javobgarlikka tortish asoslari, ayrim toifadagi xodimlarning mehnatini tartibga solish va mehnat muhofazasini to‘g‘ri topish; –ish beruvchi va xodimlar o‘rtasida yuzaga keladigan mehnatga oid nizolarni hal etish tartibini aniqlay olish; –mehnat qonunchiligi bilan tartibga solinadigan vaziyatlarda to‘g‘ri huquqiy yechimni tanlash, tahlil qilish.	3
7. Oila huquqi asoslari (32–33-savollar)		
Oilaviy - huquqiy munosabatlar	–oila huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlarni aniqlay olish; –ularni boshqa huquqiy munosabatlar bilan taqqoslash, farqlash; –nikohni tuzish, tugatish, nikoh shartnomasi, aliment majburiyatlarini aniqlay olish; –er-xotinning oila qonunchiligidagi huquqlari, majburiyatlari, farzandlarning huquqlari va majburiyatlarini aniqlay olish; –vaziyatga mos oila qonunchiligi normasini tanlash, harakatga keltirish, tahlil qilish.	2
8. Jinoyat va jinoyat protsessual huquqi (34–37-savollar)		

Jinoyat va jinoyat protsessual huquqi	–jinoyat va jinoyat protsessual huquqi, kriminologiya bilan bog‘liq ma’lumotlarni farqlay olish; –jinoyat va jinoyat protsessual kodeksi orqali amalga oshiriladigan harakatlarni topish; –jinoyatning tarkibi, turlari va ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlay olish; –jinoyatda ishtirokchilik turlarini farqlay olish; –jinoiy javobgarlikka tortish va jazo tizimini aniqlay olish; –berilgan vaziyatlarda qanday jinoyat tarkibi mavjudligini topish; –vaziyatlarni tahlil qilish va baholash; –faktlarni aniqlash, atamalar va qoidalarini amalda qo‘llash, taqqoslash, sabab–oqibatlarini tahlil qilish va dalillarga asoslangan xulosalarni baholash.	4
9. Ekologiya huquqi asoslari (38–40-savollar)		
Ekologik huquqbuzarliklar va javobgarlik turlari	–ekologiya huquqining mohiyati va maqsadini aniqlay olish; –ekologik huquqbuzarlik va javobgarlikni aniqlay olish; –ekologik huquqbuzarlik va javobgarliklarni boshqa huquqbuzarliklardan farqlay olish; –biologik xilma-xillikni aniqlay olish; –atrof-muhitni muhofaza qilishga oid vaziyatlarda to‘g‘ri huquqiy chorani(yechimni) tanlash.	3
Jami		40 ta

Kognitiv ko‘nikmalar taqsimoti

2-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo‘llanilishini tushunish
2	Qo‘llash	Bilim va tushunchalarni yangi (notanish) kontekstlarda qo‘llay olish
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasini (raw score) hisoblash uchun har bir to'g'ri javob uchun 2,5 ball, noto'g'ri javob uchun ball berilmaydi. Umumiy eng yuqori natija 100 ballni tashkil etadi.

V. Imtihon tartibi

Test topshiruvchi imtihonga shaxsini tasdiqlovchi hujjat bilan keladi va test tashkilotchisi tomonidan belgilangan tartibga rioya qiladi. Imtihon boshlanishidan oldin test topshiruvchilarga topshiriqlarni bajarish hamda javoblarni belgilash tartibi tushuntiriladi.

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet, quloqchin, elektron eslatma, ruxsat etilmagan bosma yoki elektron materiallardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish va nazoratchi ko'rsatmalariga amal qilmaslik taqiqlanadi. Qoidabuzarlik aniqlanganda, u belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi va test topshiruvchi imtihondan chetlashtirilishi mumkin.

VII. Tavsiya etiladigan asosiy manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi Lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi Lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi Lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi Lex.uz.
7. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi Lex.uz.
8. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksi Lex.uz.
9. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi Lex.uz.
10. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi Lex.uz.
11. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonuni Lex.uz.
12. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik to'g'risida"gi qonuni Lex.uz.
13. O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchi huquqlari to'g'risida"gi qonun Lex.uz.
14. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Lex.uz.
15. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonuni. Lex.uz.

16. Davlat va huquq asoslari 8-sinf darsligi. Sh.Saydullayev, A. Sodikov va boshqalar. Respublika ta'lim markazi, Toshkent-2024.

17. Davlat va huquq asoslari 9-sinf darsligi. I.Bekov, H.Tuychiyeva va boshqalar. Respublika ta'lim markazi, Toshkent-2024.

18. Davlat va huquq asoslari 10-sinf darsligi. X.Tuychiyeva va boshqalar. Respublika ta'lim markazi, Toshkent-2023.

19. Davlat va huquq 11-sinf darsligi. A. Sodikov, N.Ismatova, J.Bobojonov. Respublika ta'lim markazi, Toshkent-2025.

20. Davlat va huquq nazariyasi darslik. Sh.A.Saydullayev. "Yuridik adabiyotlar publish", Toshkent-2021.

21. Davlat va huquq nazariyasi darslik. X.T.Odilqoriyev. "Adolat", Toshkent- 2018.

VIII. Eslatma

Test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan manbalarda aks etgan qonunchilik, kasbiy mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi. Biroq topshiriqlar manbalardan to'g'ridan-to'g'ri olinmaydi. Test topshiriqlari talabgorning kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish, bilimni amaliyotda qo'llash va asosli qaror qabul qilish ko'nikmalarini baholashga qaratiladi.